



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA CHET TILINI O'QITISH JARAYONIDA BOLALARNING QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISH

**Nuriddinova Maxliyo Nuriddin qizi**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika  
instituti magistranti*

*E-mail: n14mahliyo@gmail.com*

*tel: 93-376-32-31*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha talim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining chet tili so'z boyligini oshirishga va qiziqishlarini o'stirishga qaratilgan. Tarbiyalanuvchilarning nutqini boyitish, talaffuzini to'g'ri shakllantirish vazifalari yoritilgan. Chet tili mashg'ulotlarida didaktik va interfaol o'yinlarning ahamiyati haqida so'z yuritilgan

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim tashkiloti, interfaol o'yin, tarbiyalanuvchi, ta'lim tarbiya jarayoni, nutq, artikulyasiya mashg'uloti, didaktik o'yin, uzluksiz ta'lim, texnologiya, ta'lim oluvchi.

**Аннотация:** Данная статья направлена на увеличение иноязычного словаря и интереса учащихся дошкольной образовательной организации. Выделены задачи по обогащению речи учащихся и правильному формированию их произношения. Слово о значении дидактических и интерактивных игр на занятиях иностранным языком держал

**Ключевые слова:** организация дошкольного образования, интерактивная игра, воспитатель, учебный процесс, речь, артикуляционное упражнение, дидактическая игра, непрерывное образование, технология, обучающийся.

**Annotation:** This article is aimed at increasing the foreign language vocabulary and interest of students of the preschool education organization. The tasks of enriching the students' speech and forming their pronunciation correctly are highlighted. A word about the importance of didactic and interactive games in foreign language classes. held.

**Key words:** organization of preschool education, interactive game, student, educational process, speech, articulation exercise, didactic game, continuous education, technology, learner.

Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyot istiqbolida talim tizimidagi o'zgarishlarning kengaytirilishi, yurtimiz ravnaqini belgilashda bosh omil bo'ladi desak yangilishmagan bo'lamiz. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-269-sonli qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi negizida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tashkil etildi. Vazirlik O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ta'limga doir konstitusion huquqlariga rioya etilishini ta'minlovchi, maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun javob beradigan vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunadi va hisobot beradi.[1] Prezidentimizning ushbu qarorlari yurtimizda uzluksiz talimning boshlang'ich bo'g'inlari hisoblangan maktabgacha talim tashkilotlari va umumiy



o'rtta talim maktablaridagi talim sifatini yanada rivojlantirishga erishish nazarda tutilgani yaqol ko'rinib turibdi. Maktabgacha talim tashkiloti bu –bolalarni sifatli maktab talimga tayyorlab beruvchi maskan. bolalarning barcha aqliy, jismoniy, etik-estetik, axloqiy, talimiy va nutqiy sifatlarini to'g'ri shakllantirish maktabgacha talim tashkilotlarining asosiy vazifalaridandir. Hozirgi kunda maktabgacha talim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga chet tilini o'qitish yanada rivojlantirilmoqda. Til-aloqa vositasi. Bolalarga bog'cha yoshlaridanoq kamida bitta chet tillini o'rgatish ularning aqliy salohiyati va keyinchalik maktab talimida tillarga mehr va qiziqish bilan o'qishlariga asos bo'ladi. Maktabgacha talim tashkilotlarida chet tillini o'rgatishda Xitoy tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, tarbiyachilar taqlid usulidan keng foydalanishda masalan, (dog) kuchuk, ushbu hayvoni ko'rsatish jarayonida biroz egilib tilini osilgan holatda uning tovushiga taqlid qiladi, (monkey) maymun bu hayvoni ko'rsatishda biroz egilib bir ikki sakraydi va buni bolalar osongina topishadi. Xitoy davlatida asosan bir farzandli oilalar ko'pchilikni tashkil etadi, bu bolalarning erka xarekterga ega bo'lishadi. Bunda tarbiyachining mehirliligi va bolalarni tushunish qobiliyati yuqori bo'lishini talab etadi. Maktabgacha ta'limda xorijiy til mashguloti. O'quv kabenitida bolalar diqqat - e'tiborini televizor, kompyuter videoproyektor uziga jalb qilib turadi. Turli oilaviysharoitda tug'ilib, ongi shakllanayotgan bolalarning biri juda ziyrak, ikkinchisi o'rtta darajada, uchunchisi esa qaytatushuntirgachgina kabul qiladi. Qaysi bola qanday bo'lmasin,

Mashg'ulotda xar biriga o'tiladigan mavzuga oid bilim va tushuncha berish kerak.

“Xirondelle” mashg'ulotligida bolaning yosh xususiyatlari inobatga olingan. Tarbiyachi-tarbiyachilar bu o'quv adabiyotida amaliyotda unumli foydalanmoqdalar. Mashg'ulotda ko'proq o'yin va muloqot muhitini yaratish kerak. Chunki endi maktabga chiqqanbolada o'ynashga, o'yinchoqlar olamiga, narsa-buyumlarni tasavvuri asosida bo'yashga moyillik kuchli buladi.

Mashg'ulot jaroyonida multimedia dasturlarini rivojlantirish markazida yaratilgan elektron manbalarni namoyish etganda, bolalar yanada jonlanadi. Buning afzal

tomoni shundaki, bola slayd orqali nafaqat buyum va narsani ko'rib, tasavvuri boyiydi, balki fransuzcha talaffuz ko'nikmasi ham hosil qilinadi. Xorijiy tilni o'rganishda eng muhim komponent - tinglash, talaffuz qilish, o'qish - yozish hisoblanadi. Agar bola to'g'ri talaffuz qilishni o'rgansa, yozish malakasini ham oson egallaydi. Bir - biriga uzviy bog'langan bu jarayonlarga mashg'ulot o'tishda e'tibor berilishi kerak. Bolaga o'z ona tili bilan bir vaqtda chet tilini ham o'rgatish katta



mehnat talab qiladi. Har bir talim dargohi bu jarayonga an'anaviy va noan'anaviy tarzda yondashadi. Natija esa yillar o'tib ma'lum bo'ladi. [2] Maktabgacha talim tashkilotlarda chet tilli mashg'ulotida bolalar qiziqishlarini oshirish, ularning zerikishlarini bartaraf etishning eng oson va oddiy usuli ko'roq o'yin metodlaridan foydalanishdir. Lug'at ustida ishlashda **ko'rgazmalilik**dan unumli foydalanish va yorqin rangli rasmlar, buyumlar yordamida bolalarga yangi so'zlarni o'rgatib borish muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshda yangi bilimlarni o'zlashtirishda bolalar uchun ko'rgazmali tayanch muhim ahamiyat kasb etadi. Metodist olimlar fikricha, leksikani faol egallab olishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan so'z ma'nosini tushunishga, ushbu so'zlar ifodalaydigan tushuncha va buyumlar bilan tanishishga bog'liq. [3]

Bolalar uchun til o'rgatishning erta kechi yo'q, ammo qancha erta davrlardan harakat qilinsa samaraliroq bo'ladi. Bolada tilga nisbatan mehri erta yoshdayoq uyg'onadi. Bolaga ingliz tilini o'rgatishda qo'l keladigan 5 tavsiya.

Farzandingiz til o'rganishi uchun siz qanday yordam bera olasiz? Quyida ushbu savolga javob beramiz. O'yin orqali o'rgating

Agar farzandingiz 3-7 yosh oralig'ida bo'lsa, unda ingliz tilidagi multfilmlar qo'yib berish, ingliz tilidagi joy, meva, ranglar nomi yozilgan o'yinlar o'ynatish tavsiya qilinadi. Online materiallardan foydalansangiz, birgalikda tomosha qiling. Masalan, videoda qizil rangni "red" deb aytsa, savol berish orqali bola xotirasiga mustahkamlanishiga ko'maklashing. Mashina qanday rangda ekani, bu rang ingliz tilida nima deyiladi singari savollar berib, birgalikda shug'ullansangiz, tezroq natija kuzatiladi. Maktab yoshidagi bolalar uchun geymifikatsiya — o'yin mexanikasi yaxshi variant. Mashg'ulot davomida ko'rgazmali qurollar, suratlar, qo'llanmalar, kartalardan foydalaning. Shug'ullanish davomida yaxshi natija qayd qilsa, rag'batlantiring. [4] Bolalarda berilgan bilimlarning yodda qolishida o'rganganlarni takrorlash ko'p marta bajarilishi kerak. Bunda bola yangi mavzuga o'tishdagi hayajon pasayadi, chunki bolada tushunchalari yodida saqlash ko'p marta bajarilgan bo'ladi. Maktabgacha talim tashkilotlarda bola chet tillini o'rganishga qadam qo'ysa talimning keying bosqichlarida, bolada zo'riqish kamayadi, vazifalar og'irlik qilmaydi. Eng muhimi til o'rganishga ishtiyoq va mehri ko'payadi. Mamlakatimizdagi talim tizimining dastlabki bosqichlarda chet tillini o'rgatish yanada kuchaytirilishi bolalarning til malakalarini egallashi shunchalik barvaqt bo'ladi va natijasi samarali bo'ladi. Bolalarga o'z ona tiliga mehri tuyg'usini shakllantirish bilan bir vaqtda



boshqa tillarga ham qiziqtirish tarbiyachi va chet tilli o'rgatuvchining tajriba va hamkorligiga bevosita va bilvosita bog'liq jarayondir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.m.wikipedia.org/>
2. Alavutdinova, N., & Ergasheva, L. (2024). COMMUNICATIVE CHARACTERISTICS OF TEACHING THE UZBEK LANGUAGE AS A FOREIGN LANGUAGE. Science and innovation, 3(B1), 29-34.
3. Aripova, S. (2024). Linguistic and cultural characteristics of the translation of stories in English and Uzbek languages. Modern Science and Research, 3(1), 98-101.
4. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi.-T.; Sano-Standart, 2004.-B.62
5. Maktabgacha talim tashkilotlarida ingliz tilini o'rgatish metodikasi. D. Jabborova, G. Ergasheva, X. Ergasheva. Namangan 2021.
6. Alavutdinova, N., & Abdurahmonova, M. Ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish muammolari. O'ZBEKIST, 87.
7. Taxirovna, A. S. (2024). Features of Uzbek and English story translations. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 2(2), 202-208.
8. <https://daryo.uz/2020/06/29/bolaga-ingliz-tilini-orgatishda-qol-keladigan-5-tavsiya>.